

"LIRIK ASARLARNI O'QITISH METODIKASI"

Shirinbayeva Sevinch Olimjonovna
O'zbekiston-Finlandiya pedgogika instituti
O'zbek tili ava adabiyoti yo'nalishi 1-kurs magistratura talabasi

Annotatsiya: *Mazkur ishda lirik asarlarni umumta'lim maktablarida o'qitish jarayoni, uning maqsadi, ahamiyati va samarali metodik yondashuvlari yoritilgan. Lirik asarlarning o'quvchilarning ma'nnaviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishdagi o'rni, ularda badiiy tafakkur, estetik did va tuyg'u uyg'otishdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, lirik asarlarni tahlil qilish usullari, interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari va dars jarayonida uchraydigan muammolar ham ko'rib chiqilgan. Ishda nazariy asoslar bilan bir qatorda amaliy tavsiyalar ham berilgan bo'lib, u adabiyot o'qituvchilari va metodistlar uchun foydali qo'llanma bo'la oladi.*

Kalit so'zlar: *she'r, she'riyat, shoir, lirik qahramon, emotsiyal yondashuv, poetik mahorat.*

KIRISH

Adabiyot fani o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki estetik didini, ruhiy olamini va insoniy fazilatlarini shakllantirishda muhim o'rinni tutadi. Ayniqsa, lirik asarlar — she'rlar, dostonlar va boshqa badiiy ifoda shakllari orqali shoir va yozuvchilarning ichki kechinmalari, tuyg'ulari, tabiat va jamiyatga bo'lgan munosabatlari nozik va ta'sirchan tarzda ifodalanadi. Lirik asarlarni o'qitish bu asarlarning badiiy go'zalligini anglash, tuyg'ular olamini tahlil qilish va o'quvchilarda badiiy tafakkurni shakllantirish jarayonidir.

Lirik asarlarni o'rgatishda samarali metod va yondashuvlardan foydalanish, o'quvchining o'z fikrini mustaqil ifoda etishiga, badiiy matnni tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lishiga zamin yaratadi. Shuning uchun, bu mavzuda lirik asarlarning o'quv jarayonidagi ahamiyati, ularni o'qitishda qo'llaniladigan metodlar, hamda dars jarayonida yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari atroflicha ko'rib chiqiladi.

Lirika adabiy tur sifatida qadimdan rivojlangan bo'lib, o'zining bir qator xususiyatlariga ega. U o'zida subyektivlik kuchli ekanligi, syujetning mavjud emasligi, emotsiyonalligi bilan boshqa adabiy turlardan farq qiladi. Lirik asarda subyekt va obyekt bir shaxsda mujassam bo'ladi, undagi markaziy "personaj" ijodkorning o'zi, yanada aniqrog'i, uning ichki ma'nnaviy-ruhiy olami hisoblanadi. Lirik asarlar ijtimoiy, madaniy, maishiy, ishqiy mavzularni qamrab olishi va juda katta ijtimoiy, estetik mohiyatni ifodalashi mumkin.

Nazmiy asarlarni o'rganishga bag'ishlangan darslarning maqsadi o'quvchilardagi badiiy tafakkurning to'g'riliqi, teranligini ta'minlash, ularni poetik mahorat nozikliklari bilan tanishtirish, shu qatorda asarning mohiyatiga kirish, qahramonni his qilishga erishishdan iborat. Q.Yo'ldoshevning: "Lirik turdag'i asarlar uchun asosiy narsa tuyg'u va hissiyotga yo'g'rilgan hayotiy hikmat ifodasini berishdir. Lirikada voqealar tasviri, xarakter mantig'i

emas, ruhiy holat tasviri, hissiyot ifodasi , tuyg'ular samimiyati muhimdir. Chinakam lirik she'r tinglovchi yo o'quvchiga faqat zavq beribgina qolmay, uning emotsiyal- axloqiy imkoniyatlarini uyg'otadi, faoliyatga undaydi. Samimiy lirik so'z hatto real vogelik hodisalariga qaraganda ham inson ruhiyatiga kuchliroq ta'sir ko'rsatishi mumkin ekanligi psixologiya ilmi xulosalaridan ma'lum”,[1]- degani fikrimizni dalillaydi.

O'zbek adabiyotshunosligida ushbu mavzuda tadqiqot olib borgan olimlar talaygina. O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol lirik she'r tuzilishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan ,shuningdek, To'xta Boboyev “Adabiyotshunoslik asoslari”da, Dilmurod Quronov “Adabiyotshunoslikka kirish” kitobida lirik tur haqida keltirib o'tgan. Bulardan tashqari, adabiyotshunos olimlar E.Xudoyberdiyev (lirik tur xususiyatlarini to'rt turga bo'lgan) va A.Sharopov (lirik kechinma tabiatini haqida) fikr yuritganlar.

B.To'xliyev, M.Mirqosimova, S.Ahmedov kabi olimlar ham o'zlarining adabiyot o'qitish metodikasiga doir asarlarida lirik asarlarni o'rganish va tahlil qilishga doir qator ilmiy va amaliy tavsiyalar berib o'tganlar. Q.Husanboyeva va R.Niyozmetovaning “Adabiyot o'qitish metodikasi” darsliklarida: “So'z o'quvchining ruhiyatiga ta'sir ko'rsatgandagina unda zavq uyg'otadi,bu bilan insonni tarbiyalaydi ham. She'r his-tuyg'uni junbushga keltirib, faol estetik kechinmalar uchun zamin yaratadi, shaxs dunyoqarashining tarkibiy qismi bo'lmish e'tiqodga sayqal beradi, olijanob xatti-harakatlarga otlantiradi”,- degan fikrlar keltirilgan.[2] Kitobda lirik asarlarda kayfiyat va tuyg'ular tasvirining ustuvorligi, ularning inson ichki dunyosi, ruh va qalb hodisalari tasvir obyekti ekanligiga urg'u berilgan. She'riy asarlarda ifodali o'qishning ahamiyati, lirik asarlarni tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan o'rinalar mavjud.

Ma'lumki, lirikada mazmun tuyg'u bilan qorishiq holda bo'ladi. Adabiyot darslarida she'riy matnni ifodali o'qishga, har bir so'z zimmasiga ortilgan yukka, hissiyotlar ifodasiga o'quvchi e'tiborini yo'naltiradigan savollar hamda topshiriqlar tuzishga katta e'tibor qaratiladi. O'quvchining she'riy matnni qayta hikoyalashiga yo'l qo'yilmasligi ahamiyatlidir. Chunki mazmun so'zlab berilganda she'rning ta'sir kuchi deyarli yo'qoladi.

She'r matnni maromiga yetkazib o'qish, ya'ni muallifni his qilib o'qish va bu mutolaadan rohatlana olish she'r qay darajada idrok etilganiga baho berishning birlamchi omiliidir. Kitobxon she'rni ifodali o'qiy olmadimi yoki undan ta'sirlanmadimi, demak, nimanidir yetarli tushunmagan, obrazli ifodalarni e'tiborga olmagan bo'ladi. Bu bevosita lirik matnning mohiyatiga kirishga ham ma'lum ma'noda aks ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyot darslarida lirik asarlarni o'qitishning mas'uliyatli daqiqalaridan biri bu, albatta o'qituvchi tomonidan she'rni yoddan ifodali o'qilishi va o'quvchilarini ta'sirlantira olishidir. Shunda sinfdagi barcha o'quvchilar bir lahzada she'r dan olingan estetik ta'sir og'ushiga g'arq bo'ladi.

Boqijon To'xliyev o'zining “Adabiyot o'qitish metodikasi” nomli qo'llanmasida ham lirik asarlarni o'rganishga keng o'rin ajratgan. Darslikda lirik asarlarni janr xususiyatlariga ko'ra tadqiq qilish, ularni qabul qilishning o'ziga xos xususiyatlari, poetik matnni tahlil qilish yo'llari, lirikaning muktabda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida, shuningdek, olyi ta'limda o'rgatilishi ham alohida keltirib o'tilgan. “ Bizda she'riy janrlar, lirik asarlar haqida

yozilgan tadqiqotlar nihoyatda ko'p. Bu bejiz emas. Aslida bizning adabiyotimiz tarixi tom ma'nodagi lirik asarlar tarixi desak mubolag'a bo'lmaydi. Klassik adabiyotimizdagi g'azal ming yillar davomida adabiyotimizning butun kuch va qudratini, tilimizning nazokat va tarovatini ko'rsatadigan bir belgi, ko'rsatkich bo'lib kelganligi buning yorqin dalilidir", - deya so'z boshlaydi adabiyotshunos B.To'xliyev.[3]

Lirikaning har bir xususiyati ta'lif jarayonida e'tiborga olinishi shart. Psixologlarning tadqiqotlariga ko'ra, IV-VI sinf o'quvchilari VII-VIII sinf o'quvchilariga qaraganda she'riy asarlarni tushunishga va o'qishga moyilroq bo'ladi. Bu moyillik IX-XI sinf o'quvchilarida yanada rivojlanib boradi.

She'r bir shaxsning – shoirning olamni o'ziga xos ko'rishi natijasida yuzaga kelgan hodisadir. Butun mohiyat shu o'ziga xos qarash va ko'rishni anglab, his qilishga qaratiladi. Mana shu konkret bir shaxsga tegishli tuyg'ular ayni paytda butun insoniyat, jamiyatga bir xilda aloqadorligini anglash she'rni idrok etishdagi birinchi qadam bo'ladi.

Lirik asarlarni o'qitishning zamonaviy texnologiyalari, asarning badiiy va emotsiyal xususiyatlarini tushunishga yordam beradigan, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Bu metodlar o'quvchilarning lirik asarlarga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularni chuqurroq his qilish va tahlil qilishga undashga qaratilgan. Quyidagi metodlar lirik asarlarni o'qitishda samarali bo'lishi mumkin:

Emotsional yondashuv. Bu lirik asarlarni o'qitishda o'quvchilarni asarning histuyg'ularini va muallifning ruhiy holatini tushunishga undash demakdir. Bu usulda o'quvchilar asarning badiiy va hissiy taraflarini tahlil qiladi, o'z tuyg'ularini ifoda etishga harakat qiladi.

Vizualizatsiya. Lirik asarlarni o'qiyotgan paytda, o'quvchilarga asardagi obrazlarni tasavvur qilish yoki ularni tasvirga solish taklif qilinadi. Shuningdek, asar asosidagi tasvirlar, ranglar, pikrogrammalar yoki raqamli ilovalar yordamida o'quvchilarga tasavvur qilish imkoniyati yaratiladi.

Metafora va simvolizmni o'rganish. Lirik asarlarda ko'pincha chuqur metaforalar va simvollardan foydalaniлади. O'quvchilarni bu badiiy vositalarni aniqlash va ularni mazmun bilan bog'lashga о'rgatish lozim. Masalan, biror metaforaning yoki simvolining asardagi roli haqida fikr yuritishni mumkin.

Interaktiv yondashuv. O'quvchilarni asarni o'qigandan keyin uning mazmunini turli shakllarda muhokama qilishga chaqirish. Masalan, guruhlar shaklida fikr almashish, har bir o'quvchidan asar haqidagi shaxsiy taassurotlarini so'rash yoki asar asosida qisqacha debatlar o'tkazish.

Musiqiy qo'llash. Lirik asarlar ko'pincha ritm va musiqa bilan bog'liq. O'quvchilarga lirik asarni musiqiy fonda o'qitish, uning ritmik tuzilishini va hissiyotlarini yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Kreativ yozish va ijodiy ishlar. O'quvchilarga asar asosida o'zining lirik qissasini yoki she'rini yozishni taklif qilish. Bu metod ularni o'z fikrlarini badiiy ifoda etishga undaydi va asarning mavzusiga chuqurroq kirib borishga yordam beradi.

O'zaro taqqoslash va qiyoslash. Lirik asarlarni boshqa badiiy asarlar bilan taqqoslash, mualliflar orasida o'xshashliklarni va farqlarni aniqlash. Bu metod lirik asarlarda ko'rsatilgan umumiyl mavzular, his-tuyg'ular yoki ijtimoiy muammolarni tahlil qilishni rivojlantiradi.

Badiiy va ijtimoiy kontekstda o'rganish. Lirik asarni yozilgan davri va muallifning ijtimoiy muhitini o'rganish. O'quvchilarga asarning tarixiy va madaniy kontekstini tushunishga yordam berish, bu orqali asarning chuqur mazmunini anglashga undash mumkin.

Bu metodlar yordamida o'quvchilar lirik asarlarni nafaqat o'qish, balki his qilish va o'z fikrlarini erkin ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladi.O'quvchilarning yoshi va darajasiga qarab maqbul usulning tanlab olinishi maqsadga muvofiq.

XULOSA

Lirik asarlarni o'qitish — bu nafaqat adabiy bilim berish, balki o'quvchilar qalbiga estetik tuyg'ularni singdirish, ularni nozik didli, mulohazali, hayotga, tabiatga va insonlarga mehr bilan qaraydigan shaxs sifatida shakllantirishdir. Bunday asarlarni o'rgatishda zamonaviy pedagogik metodlardan, interfaol usullardan va individual yondashuvdan foydalanish o'quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, ularning tahlil qilish, fikrlash va o'zini ifoda etish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, lirik asarlarning badiiy tahlili orqali o'quvchilar she'riy so'zning ohangi, obrazlar tizimi va ifoda vositalari haqida chuqurroq tasavvurga ega bo'ladilar. Bu esa ularda adabiy tafakkur va ruhiy-ma'naviy dunyoqarashning shakllanishiga xizmat qiladi. Demak, lirik asarlarni o'qitishda o'qituvchining metodik yondashuvi muhim o'rinn tutadi va bu yo'nalishdagi izlanishlar adabiyot ta'limining samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yo'Idoshev Q. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. doktori ... diss. – Toshkent: 1997. 235-bet.
2. Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Toshkent.2018.233-bet.
3. B.To'xliyev. Adabiyot o'qitish metodikasi. – T.: Toshkent.2010.75-bet.
4. S.X.Muhamedova, M.D.Abdullayeva, Sh.Sh.Yuldasheva, Y.B.Eshmatova. O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari. – T.: "Tafakkur bo'stoni".2018.
5. www.ziyonet.com